

ANSAMBL IJROCHILIGINING UMUMIY QOIDALARINI
O'RGATISH USLUBLARI

Sobirov Otajon Zohidjon o'g'li

Annotatsiya

Ushbu maqolada ansambl ijrochiligining umumiy qoidalarini o'rgatish uslublari haqida fikr yuritilgan. Ansambl ijrochigida ishlataladigan cholg'ularning sozlanishi hamda saqlanishi haqida umumiy qoidalar berilgan. Musiqiy cholg'ularning tarovati, rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutishi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: ansambl, cholg'u, milliy, qadriyat, asbob, soz, ijrochi, ijro, soz.

Аннотация

В статье рассматривается методика обучения общим правилам ансамблевого исполнительства. Приводятся общие правила настройки и ухода за инструментами, используемыми в ансамблевом исполнительстве. Обсуждается особое место, которое музыкальные инструменты занимают в нашей национальной музыкальной культуре благодаря своей новизне, разнообразию и несравненным исполнительским возможностям.

Ключевые слова: ансамбль, инструмент, национальный, ценность, инструмент, композиция, исполнитель, исполнение, сочинение.

Abstract

This article discusses the methods of teaching the general rules of ensemble performance. General rules are given for tuning and maintenance of instruments used in ensemble performance. It discusses the special place that musical instruments occupy in our national musical culture due to their freshness, diversity and incomparable performance possibilities.





Keywords: ensemble, instrument, national, value, instrument, composition, performer, performance, composition.

KIRISH

Ansamblda ijro mahoratini egallash, avvalo, to‘g‘ri o ‘tirish, cholg‘u sozini to‘g‘ri tutish, tovush chiqarish madaniyatini egallab borish, ijro harakatlarini to‘g‘ri shakllantirish hamda jamoaviy ijro qoidalariga to‘liq rioya etishlikni nazarda tutadi: — ijro paytida gavdani shunday tutish lozimki, toki u ijrochining barcha harakatlari uchun qulay va tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘lsin; — suyanchiqqa suyanmasdan, o‘rindiqning yarmida o ‘tirish odat qilinadi, sozandalarning chap oyoqlari oldinroq o ‘ng oyoqlari esa orqaroq joylashadi; — o‘ng qo‘lning to‘g‘ri joylanishiga, ijro harakatlarining erkin bo‘lishiga erishiladi; — chap qo‘l soz dastasini siqmasligi (rubob, afg‘on rubobi, soz, g‘ijjak, dutor sozlarida), qo‘l kafti dastaga tegmasligi, erkin bo‘lishiga harakat qilinadi; — sozandalar kuyni boshlashda diqqat bilan o‘tirishlari, boshlovchi sozanda yoki doiraning auftakli bilan birgalikda boshlashlari zarur; — kuyni tamomlashda ham xuddi shunday doira usuliga muvofiq yoki umumiyligi ansamblning bir nafasda tamomlashiga diqqatni qaratish lozim; — ansambl ijrochiligidagi jamoaviy ijro madaniyatiga rioya qilish, ijro paytida diqqat bilan o‘tirish nafaqat o ‘z sozi tovushi, balki umumiyligi ansambl tovushini va shunga mos ravishda o ‘z sozi tovushini nazorat qilib borish lozim; — ijro uchun qulay va to‘g‘ri holatni tanlash, qo‘llarni erkin tutish, tovush chiqarish madaniyatini to‘g‘ri o‘zlashtirib borish har bir soz ijrosi uchun umumiyligi talablar mazmuniga kiradi.

CHOLG‘U SOZLARINI SOZLASH

Cholg‘u sozini aniq tovush manbayiga, masalan, kamertonga yoki to‘g‘ri sozlangan fortepiano tovushiga sozlash tavsiya etiladi. Ansamblda esa cholg‘ular odatda nay yoki chang cholg‘usiga sozlanadi. Dars boshlanishidan yoki biror-bir konsertga chiqishdan oldin ansambldagi cholg‘u sozlarini har birini toza qilib sozlash tufayli butun ansambl unison sozining sofligiga erishiladi. Cholg‘u sozlarini dastlabki mashg‘ulotlarda musiqa rahbarining o‘zi sozlab beradi va



sekin-asta shogirdlarini ham o‘z sozlarini mustaqil sozlashga o‘rgatib boradi. Ma’lumki o‘zbek xalq cholg‘ularining deyarli barchasi (puflab chalinadigan sozlardan tashqari) teri parda bilan qoplangan yoki yog‘och qopqoqli bo‘lib, simlar harrak orqali o‘tkaziladi. Shuning uchun ham cholg‘ulami sozlash jarayonida torlar tagiga qo‘yilgan harrakning to‘g‘ri joylashishiga alohida e’tibor berish zarur. Soz awal ochiq torda hosil qilinib keyin oktava pardasi bosilib uning aniq sozlanganligiga ishonch hosil qilinadi. Agar tovush sof oktavada eshitilsa, bu harrak to‘g‘ri joylashganligidan dalolat beradi. Torni bosib chalganda ochiq parda oktava pardasidan baland eshitilsa harrakni o‘rnashgan joyi tovush xonasidan uzoqlashtiriladi va aksincha, torni bosganda tovush oktavadan past sadolansa, harrak tovush xonasi tomonga suriladi, natijada ochiq tovush oktava tovushi bilan bir xilligiga erishiladi. Birinchi ochiq tovush tiniq sozlanishiga erishilgach, qolgan torlar ham shu tovushga nisbatan aniq qilib sozlanadi. Barcha sozlar aniq sozlanishiga erishilgandagina ansamblning umumiyligi sozini ham tiniq unison eshitilishiga erishiladi.

CHOLG‘ULARNI SAQLASH

Ansamblning cholg‘u sozlarini yaxshi saqlanishi, awalo, mashg‘ulot o‘tkaziladigan xonaning holatiga bog‘liq. Odatda mashg‘ulot xonasi keng, yorug‘, bahavo, harorati mo‘tadil bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Mashg‘ulot xonasida o‘quv adabiyotlari, notalar, cholg‘u sozlariga kerakli torlar, pult, konifol gibi kerakli anjomlar saqlanadigan shkaf va nota chiziqlari chizilgan sinf taxtasi bo‘lishi kerak. Dars xonasi cholg‘u sozlarini, sozlarining applikatura jadvallari, nota savodxonligiga oid nazariy ma’lumotlar, taniqli bastakor va sozandalarning rasmlari bilan jihozlangan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Cholg‘u sozlarini ham ana shu xonada saqlanishi lozim. Ularning yaxshi saqlanishi uchun har bir soz matodan tikilgan g‘iloflarga kiydirib qo‘yiladi va cholg‘ular shkafning taxtali tokchalarida saqlanadi. Dutor, tanbur, g‘ijjak, doira gibi cholg‘ularning dastasiga ip bog‘lab ularni shkafning mixchalariga ilib qo‘yish ham mumkin. Bundan tashqari har bir cholg‘uning holati uchun javobgarlik hissini birinchi



mashg'ulotlardan qatnashchilarga tushuntirib borish kerak. Chunki o'zbek xalq cholg'ulari ob-havo temperaturasi va namligiga juda ta'sirchandir. Sozanda o'zi chaladigan cholg'uning ahvolini yaxshi bilishi va nafaqat mashg'ulot xonasida, balki doimo xoh konsertlarda bo'lzin, xoh o'zi mustaqil mashq qilish jarayonida bo'lzin cholg'usini ehtiyyot qilib saqlashi, ovoz sifati buzilib qolmasligini doimo nazorat qilib borishi lozim. Ansamblga qatnashchilar orasidan rahbarga yordamchi sifatida sardor saylanadi. Sardorning vazifasi ansambl rahbariga yaqindan yordam berishdir. U mashg'ulotlarni uyushtiradi, ishtirokchilarning tartib-intizomini va umumiy davomatini nazorat qiladi. Mashg'ulot xonasida sozlar, jihozlar, o'quv va kolrgazmali qurollarning yaxshi saqlanishini ta'minlaydi, rahbarning barcha tashkiliy ishlariga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Liviiev A. O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrlari. T.: O'zbekiston, 1971.
2. Odilov A. O'zbek xalq cholg'u asboblarida ijrochilik tarixi. T.: O'qituvchi, 1995.
3. Rasultoyev J. O'zbek dutor ijrochiligi. T.: O'qituvchi, 1997.
4. Rajabiy Yu. O'zbek xalq musiqasi. 1-tom. O'zbekiston Davlat nashriyoti. T., 1955.
5. Rajabiy Yu. Shashmaqom. I-tom. «Toshkent» badiiy adabiyot nashriyoti. T., 1966.
6. Rajabiy Yu. Shashmaqom. V-tom. G ' G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1973.